

## ARTICLE INFO

Received: 03<sup>rd</sup> November 2023  
Accepted: 08<sup>th</sup> November 2023  
Online: 09<sup>th</sup> November 2023

## KEY WORDS

reabilitatsiya, bachadon chandig'i, kesarcha kesish (KK), XXVI tipdagi kollagen, magnitoterapiya, ultratovush terapiyasi.

## KESARCHA KESISH OPERATSIYASIDAN KEYINGI REABILITATSIYANING SAMARADORLIGI

Kurbaniyazova Venera Enverovna  
Xudoyarova Dildora Raximovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston  
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10088095>

## ABSTRACT

*Butun dunyoda har yili kesarcha kesishlar soni ortib bormoqda. Tadqiqotning maqsadi homiladorlik va tug'ruqning keyingi natijalarini yaxshilash uchun kesarcha kesishdan so'ng ayollarning holatini klinik baholash uchun operatsiyadan keyingi davrda reabilitatsiya usullarini ishlab chiqish. Tadqiqotda 103 nafar ayollar 2020-2022 yillarda SamDTU ko'p tarmoqli klinikasi akusherlik bo'limi negizida o'rganildi. Asosiy guruh ayollariga tug'ruqdan keyingi davrda reabilitatsiya kompleks chora-tadbirlari qo'llanildi. Keyingi homiladorlik va tug'ruq natijalarini yaxshilash maqsadida reabilitatsiya muolajalari (magnit terapiyasi va ultratovush terapiyasi) qo'llanildi, buning natijasida ayollarning umumiy ahvolidan tez tiklanishi, kollagenning XXVI tipi miqdorining asosiy guruhda 20% oshishi, UTT ma'lumotlariga ko'ra operatsiyadan keyingi sohasining 2 marta tez tiklanishi qayd etildi.*

**Dolzarbligi.** So'nggi paytlarda KK dan keyin bachadon chandig'i muammosiga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotlar soni tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda, barcha nashrlarning 90% dan ortig'i so'nggi 20 yil ichida qilingan. Adabiyotlarda "chandiq yetishmovchiligi", "to'liq bo'lmagan bachadon chandig'i", "nishe", "istmotsele", "utero-peritoneal fistula", "KK dan keyin chandiq nuqsoni", "operatsiyadan keyingi chandiqning ingichkalashi/yupqalashishi" bu holatning eng keng tarqalgan ta'riflaridir (Martinov S.A., Adamyan L.V. (2020)).

Nojintseva O.N. va boshqalar (2020) o'z tadqiqotlarida ayollarda KK dan keyin chandiq maydonining yupqalashishi reproduktiv tizimga ta'sir qiluvchi turli xil asoratlarga olib kelishini, hayzdan keyin qindan qon ketish shaklida hayz davrining buzilishiga, miometriyning mahalliy noziklashuvi bo'lgan ayollarda ikkilamchi bepustlikga olib keladi. Mualliflar, shuningdek, agar ayol bu holatda homilador bo'lsa, bachadon yorilishi bo'yicha xavf omili sezilarli darajada oshadi. Biroq, bepustlik holatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi haqida ma'lumotlar yetarli emas.



Savina L.V. va boshqalar (2022), ham xuddi shunday fikrda bo'lib, ular bachadon chandig'ini taxminan 0,2-4,5% gacha yuqalashish xavfini va bachadon yorilishigacha o'tish xavfini ko'rsatadi.

Respublikamizda ham yurtdoshlarimiz (Sadikov S.P. (1993), Yusupboev R.B. (2018)) ham klinik, anamnestik va laboratoriya ko'rsatkichlari asosida KK amaliyotini o'tkazgan ayollarni olib borish taktikasini o'rganib, ularni boshqarish taktikasiga differentsial yondashish usullarining yetarli emasligini ta'kidlashgan.

Biroq, KK dan keyin bachadonida chandig'i bo'lgan ayollarni olib borish taktikasi muammosi juda munozarali bo'lib qolmoqda. Chandiqning holatini baholash mezonlarini ishlab chiqish, shuningdek diagnostika, olib borish taktikasi va reabilitatsiya choralari takomillashtirish bachadondagi chandiq zonasini tuzatishni ta'minlashga yordam beradi, bu shubhasiz zamonaviy akusherlikdagi ushbu muammoning dolzarbligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot maqsadi** homiladorlik va tug'ruqning keyingi natijalarini yaxshilash uchun kesarcha kesishdan so'ng ayollarning holatini klinik baholash uchun operatsiyadan keyingi davrda reabilitatsiya usullarini ishlab chiqish.

**Materiallar va metodlar.** Tadqiqot Samarqand davlat tibbiyot universiteti ko'p tarmoqli klinikasining akusherlik bo'limida 2020-2022 yillarda kuzatuvda bo'lgan, anamnezida bachadonida bitta chandig'i bor 103 nafar reproduktiv yoshdagi ayollarni klinik-laborator tekshiruvdan o'tkazish asosida o'tkazildi. Klinik va laboratoriya tekshiruvi davomida homilador ayollar 2 guruhga bo'lingan: I guruh - soz chandiqli (n=66), II guruhga nosoz chandiqli (n=37). Ushbu guruhlarning har biri tug'ruq natijalariga ko'ra yana 2 kichik guruhlarga bo'lingan: "A" - tabiiy tug'ruq yo'llari bilan tug'ishgan, "B" - kesarcha kesish yo'li bilan tug'ishgan. Reabilitatsiya usuli bo'yicha ayollar asosiy guruhga (n=68 - reabilitatsiya usullaridan foydalangan holda olib borilgan) va taqqoslash guruhiga (n=35 - standartga muvofiq olib borilgan) bo'lingan. Umumiy klinik, akusher-ginekologik, immunoferment tahlil (XXVI tipdagi kollagen miqdori), instrumental tadqiqotlar (UTT, dopplerometriya), morfologik va statistik usullardan foydalanilgan.

Reanilitatsiya maqsadida tug'ruqdan so'ng 4-sutkadan boshlab magnit terapiyasi, 15-kundan boshlab UT-terapiyasi 10 kun davomida 15 daqiqadan o'tkazilgan. Reabilitatsiya muolajalari 6 oydan so'ng takrorlangan va har 3 oyda baholangan.

Tadqiqot natijalarini variatsion-statistik qayta ishlash "Statistica 6.0" dasturi yordamida asosiy variatsiya ko'rsatkichlarini aniqlash bilan amalga oshirildi: o'rtacha qiymatlar (M), o'rtacha xatolar (m), standart og'ish (p). Olingan natijalarning ishonchliligi Student kriteriysi yordamida aniqlandi. Ikkala o'rtacha qiymat o'rtasidagi farq, agar p-parametri 0,05 dan kam bo'lsa, muhim hisoblanadi. Ishonchlilik darajasi kamida 95% ni tashkil etdi. Ko'rsatkichlar o'rtasidagi korrelyatsiya Excel 2010 jadvali yordamida hisoblab chiqilgan, korrelyatsiya koeffitsienti Spirmen bo'yicha hisoblangan.


**Natijalar.** 2020-2022 yillarda ilmiy-tadqiqot ishlar SamDTU ko'p tarmoqli klinikasi akusherlik bo'limi negizida, 103 nafar reproduktiv yoshdagi ayollarning amalga oshirildi. Homiladorlik davrida va tug'ruqdan keyingi davrda bitta chandiq bilan har tomonlama tekshirish va dinamik kuzatish natijalari tahlili o'rganildi. Ayollarning yoshi 18 yoshdan 40 yoshgacha, o'rtacha yoshi  $24,5 \pm 4,1$  yoshni tashkil etdi.



Tug'ruqdan keyingi davrda asoratlar va qayta KK ni xisobga olgan xolda asosiy gurux reabilitatsiyaga muxtoj deb sanalgan ayollar kiritildi (II guruhga ayollari va IB guruhdagi ayollar). Shu bilan birga bizning kuzatuvimizda umumiy ahvoli qoniqarli bo'lgan va tabiiy tug'ruq yo'llari orqali tug'ishgan, 7 nafar IA guruhidagi ayollar reabilitatsiyadan keyin tiklanishni klinik tahlil qilish uchun tanlab olingan, umumiy ahvoli qoniqarli bo'lib turgan va tabiiy tug'ruq bilan tug'gan boshqa IA guruh ayollari bilan solishtirish uchun kuzatildi.

Asosiy guruhda barcha ayollar tug'ruqdan keyingi 3-4-sutkadan boshlab fizioterapiya muolajalarini magnetoterapiya ko'rinishida boshlashdi, tug'ruqdan 15 kun o'tgach ultratovush terapiyasini ham qo'llash boshlandi va 6 oy o'tgach takrorlandi. Reabilitatsiya chora-tadbirlarining ta'sirini baxolash uchun ayollarning klinik ma'lumotlari, kollagenning XXVI tipi va UTT da chandiq xolati tug'ruqdan 3 va 6 oy o'tgach baxolanib dinamikada kuzatildi va ikkala guruhda solishtirildi.


Tug'ruqdan keyin 3 oy o'tgach UTT da taqqoslash guruhi bemorlarida chandiq sohasidagi bachadon devorining qalinligi o'rtacha  $2,4 \pm 0,04$  mm (1,6; 4,0) ni tashkil qilib ularda chandiq sohasi nosozliklari aniqlangan, asosiy guruh bemorlarida esa chandiq sohasi qalinligi o'rtacha  $1,8 \pm 0,08$  mm (1,0; 4,0) ni tashkil qilib, chandiq sohasi soz deb baholangan. Tug'ruqdan keyin 6-oy o'tgach chandiq sohasi exografik qalinligi asosiy guruhda  $3,7 \pm 0,03$  mm, taqqoslash guruhida esa  $3,2 \pm 0,05$  mm tashkil qildi. Ko'rinib turibdiki, chandiq sohasi regeneratsiyasi 6 oy davomida ikkala guruhda ham ijobiy tarafga o'tgan lekin, asosiy guruhda regeneratsiya jarayoni jadalroq kechib 3 oyda ijobiy dinamikani ko'rsatgan (1-rasm).



**Rasm 1. UTT ga ko'ra chandiq sohasi qalinligi dinamikada**

Kollagenning XXVI tipi ni dinamikada kuzatganda, ikkala guruhda keskin o'zgarishni ko'rsatdi (2-rasm). Tug'ruqdan 3 oy o'tgach kollagen miqdori asosiy guruxida  $328,22 \pm 17,5$  ng/ml dan  $363,1 \pm 48,4$  ng/ml gacha ortishi kuzatildi, taqqoslash guruxida esa uning miqdori 2 barobar kamayishi kuzatilgan ( $322,28 \pm 34,5$  ng/ml dan  $164,12 \pm 6,25$  ng/ml gacha). Ushbu kollagen turi aynan jinsiy a'zolar uchun xos bo'lganidan kelib chiqib, taxmin qilishimiz mumkinki, ushbu guruhda tug'ruqdan keyin bachadonni yana o'z xolatiga qaytarish uchun sarflangan bo'lib, umumiy ko'rsatkich pasayishiga olib kelgan. Asosiy guruhda esa reabilitatsiya


muolajarlari maxalliy ta'siri regeneratsiya uchun yaxshi sharoit yaratishi, tiklanishni yaxshilash bilan bir qatorda kollagen sinteziga xam ijobiy ta'sir qilgan bo'lishi mumkin.



**Rasm 2. XXVI tipdagi kollagen miqdorining dinamikada o'zgarishi**

Shunday bo'lsada tug'ruqdan 6 oy o'tib ikkala guruhda ham ijobiy dinamika kuzatildi, asosiy guruhda kollagen miqdori  $388,42 \pm 14,22$  ni tashkil qilsa, taqqoslash guruhida  $221,18 \pm 13,11$  ni tashkil qildi. Ko'rinib turibdiki, taqqoslash guruhidagi ijobiy dinamika muqobil deb topilgan chegaralardan past edi, bu esa o'z o'rnida keyingi homiladorlik va tug'ruq uchun asoratlarning xavf omilidir.

UTT ma'lumotlari va XXVI tipdagi kollagen miqdori ko'rsatkichlariga asoslanib, biz korrelyatsiya munosabatini va Spirmen korrelyatsiya koeffitsientini hisoblab chiqdik. Bu ko'rsatkichlar o'rtasida ham to'g'ridan-to'g'ri chiziqli, ham teskari bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Ya'ni, XXVI tipdagi kollagen miqdorining oshishi, UTTda chandiqlik sohasi qalinligining oshishi bilan ifodaladi (3-rasm), Spirmen korrelyatsiya koeffitsienti esa  $R = 0,015$  ga teng edi.





### **Rasm 3. XXVI tipdagi kollagen va UTT ma'lumotlari miqdori ko'rsatkichlarining korrelyatsion bog'liqligi**

Zamonaviy tibbiyotda noinvaziv usullarni ishlab chiqish va qo'llash dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Shu o'rinda zamonaviy akusherlik ham kesarcha kesish amaliyotini minimallashtirishga qaratilgan, hamda KK qo'llanilgan holda tabiiy tug'ruq yo'llari orqali tug'ish ko'rsatkichini oshirish uchun xizmat qilmoqda.

Ushbu tadqiqot UTT-dopplerometriya va kollegenning XXVI tip o'rtasida korrelyatsion bog'liqlik mavjudligini isbotlashi, jarroxlik amaliyotidan keyingi chandiqlik xolatini baxolashda yanada aniqlik kiritish imkonini berdi.

Tug'ruqdan keyingi erta davrda KK amaliyotidan keyingi va chandiqlik yetishmovchiligi belgilari bo'lganiga qaramay tabiiy tug'ruq yo'llari bilan tug'gan ayollarda reabilitatsiya usullarini qo'llash ularning umumiy ahvolini yaxshilanishini, jinsiy a'zolarini tug'ruqdan keyingi tez tiklanishini ko'rsatdi. Ushbu tadqiqotlar ultratovush-Doppler ko'rsatkichlari va XXVI tipdagi kollagen ko'rsatkichi o'rtasidagi bog'liqlikni isbotlaydi, bu esa jarrohlikdan keyingi chandiqlik holatini aniqroq tashxislashga imkon beradi.

**Xulosa.** Keyingi homiladorlik va tug'ruq natijalarini yaxshilash maqsadida reabilitatsiya muolajalari (magnit terapiyasi va ultratovush terapiyasi) qo'llanildi, buning natijasida ayollarning umumiy ahvolidan tez tiklanishi, kollagenning XXVI tipi miqdorining asosiy guruhda 20% oshishi, UTT ma'lumotlariga ko'ra operatsiyadan keyingi sohasining 2 marta tez tiklanishi qayd etildi.

### **References:**

1. Жаркин Н. А., Логутова Л. С., Семихова Т. Г. Кесарево сечение: медицинские, социальные и морально-этические проблемы // Rossiiskii Vestnik Akushera-Ginekologa. – 2019. – Т. 19. – №. 4.
2. Курбаниязова В. Э. Ранняя реабилитация женщин, перенесших кесарево сечение, и оптимизация ведения последующих родов // Достижения науки и образования. – 2020. – №. 2 (56). – С. 106-109.
3. Курбаниязова В. Э., Худоярова Д. Р. Реалии Времени. Реабилитация Женщин С Рубцом На Матке // Вестник науки и образования. – 2020. – №. 23-1 (101). – С. 72-78.
4. Курбаниязова В. Э. КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ СОСТОЯТЕЛЬНОСТИ ПОСЛЕОПЕРАЦИОННОГО РУБЦА И РЕАБИЛИТАЦИЯ ЖЕНЩИН, ПЕРЕНЕСШИХ КЕСАРЕВО СЕЧЕНИЕ // Перенесших Кесарево Сечение.
5. Курбаниязова В. Э., Ахтамова Н. А., Хамидова Ш. М. Интенсивное восстановление женщин репродуктивного возраста перенесших операцию Кесарево сечение // Проблемы биологии и медицины. – 2019. – Т. 4. – С. 53-55.
6. Курбаниязова В. Э. CLINICAL, ECHOGRAPHIC, MORPHOLOGICAL AND IMMUNOLOGICAL CRITERIA FOR EVALUATING A WELL-FOUNDED SCAR ON THE UTERUS AFTER CESAREAN SECTION // УЗБЕКСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ. – 2021. – №. SPECIAL 1.
7. Лебеденко Е. Ю. и др. Кесарево сечение-мировые тенденции (обзор литературы) // Архив акушерства и гинекологии им. ВФ Снегирева. – 2021. – Т. 8. – №. 1. – С. 20-25.



8. Мартынов С. А., Адамян Л. В. Рубец на матке после кесарева сечения: терминологические аспекты //Гинекология. – 2020. – Т. 22. – №. 5. – С. 70-75.
9. Ножничева О. Н., Семенов И. А., Беженарь В. Ф. Рубец на матке после операции кесарева сечения и оптимальный алгоритм диагностики его состояния //Лучевая диагностика и терапия. – 2019. – №. 2. – С. 85-90.
10. Ножничева О. Н., Беженарь В. Ф. Ниша рубца на матке после кесарева сечения-новая проблема репродуктивного здоровья женщины //Журнал акушерства и женских болезней. – 2020. – Т. 69. – №. 1. – С. 53-62.
11. Сафоева З. Ф., Хусаинова Ш. К., Умарова С. С. Сравнительная оценка неврологической симптоматики у новорожденных, рожденных естественным путем и путем операции кесарева сечения //Достижения науки и образования. – 2021. – №. 1 (73). – С. 53-57.
12. Ткаченко Л. В. и др. Применение классификации Робсона для поиска путей снижения частоты операций кесарева сечения //Вестник Волгоградского государственного медицинского университета. – 2020. – №. 2 (74). – С. 87-90.
13. Яметова Н. М., Цхай В. Б., Домрачева М. Я. Повторная операция кесарева сечения у женщин с двумя и более рубцами на матке //Медицинский вестник Юга России. – 2021. – Т. 12. – №. 3. – С. 86-91.
14. Antoine C., Young B. K. Cesarean section one hundred years 1920–2020: the Good, the Bad and the Ugly //Journal of Perinatal Medicine. – 2021. – Т. 49. – №. 1. – С. 5-16.
15. Betran A. P. et al. Trends and projections of caesarean section rates: global and regional estimates //BMJ Global Health. – 2021. – Т. 6. – №. 6. – С. e005671.
16. Cai J. et al. Cesarean section or vaginal delivery to prevent possible vertical transmission from a pregnant mother confirmed with COVID-19 to a neonate: a systematic review //Frontiers in medicine. – 2021. – Т. 8. – С. 634949.
17. Enverovna K. V. MODERN APPROACHES TO THE MANAGEMENT OF PREGNANT WOMEN WITH UTERINE SCARS AND DELIVERY TACTICS IN THEM //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. D4. – С. 154-160.
18. Enverovna K. V. MODERN APPROACHES TO THE MANAGEMENT OF PREGNANT WOMEN WITH UTERINE SCARS AND DELIVERY TACTICS IN THEM //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. D4. – С. 154-160.
19. Enverovna K. V. RELATIONSHIP OF POSTOPERATIVE SCAR ON THE UTERUS AND TYPE II COLLAGEN //JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE. – 2023. – Т. 8. – №. 3.
20. Sung S., Mahdy H. Cesarean section //StatPearls [Internet]. – Statpearls publishing, 2023.